

OITS (SPID) HAQIDA MAQOLA

Rahimov Javohir
Jumaboyeva Shaxnoza
Alfraganus University

KIRISH

OITS – bu inson immun tizimining virus (VICH – Virus Immunodefitsita Cheloveka) ta’sirida zaiflashib, turli yuqumli kasalliklar va o’sma jarayonlarga qarshi kurasha olmay qolish holati. Bu kasallik birinchi bor 1981-yilda AQShda qayd etilgan bo’lib, bugungi kunda dunyo miqyosidagi eng og’ir sog’liq muammolaridan biridir.

Kalit so’zlar: OITS, VICH, immunitet, yuqumli kasalliklar, profilaktika.

Ключевые слова: СПИД, ВИЧ, иммунитет, инфекционные заболевания, профилактика.

Keywords: AIDS, HIV, immunity, infectious diseases, prevention.

Asosiy qism

1. Kasallik sababi va patogenezi

OITSGa olib keluvchi asosiy sabab – VICH (Inson immun tanqisligi virusi). Virus asosan immun tizimning CD4+ T-limfotsitlari va makrofaglarini zararlaydi. Natijada organizmning immun javobi susayadi, oddiy sharoitda zarar qilmaydigan mikroorganizmlar ham og’ir kasalliklarga sabab bo’ladi. VICH RNA virus hisoblanadi va “retrovirus”lar guruhiga kiradi. U organizmga kimgach, o’zining revers transkriptaza fermenti yordamida DNK hosil qiladi va uni odam xujayrasi genomi bilan qo’shib yuboradi. Shu tarzda virus doimiy yashirinib qolishi mumkin.

2. Yuqish yo’llari

- Jinsiy aloqa orqali – eng ko’p uchraydigan yo’l. Himoyasiz va ko’p sherikli jinsiy aloqalar xavfni oshiradi.

- Qon orqali – steril qilinmagan igna, shprits, tibbiy asboblari, donor qon yoki qon mahsulotlari orqali.

- Ona-bolaga – homiladorlik davrida, tug’ruq paytida yoki emizish orqali yuqishi mumkin.

Virus kundalik hayotda qo’l berib ko’rishish, quchoqlash, ovqat yoki idishdan foydalanish orqali yuqmaydi.

3. Bosqichlari

- Inkubatsion davr – virus kimgandan keyin 2 haftadan 3 oygacha davom etadi. Belgilar sezilmaydi.

- O'tkir infeksiya bosqichi – grippga o'xshash belgilar (isitma, bosh og'riq, bezlarning shishi).

- Yashirin bosqich (asemptomatik) – bu davr yillar davom etishi mumkin. Bemor o'zini sog'lom sezadi, ammo virus immun tizimni asta-sekin zaiflashtiradi.

- OITS bosqichi – immunitet keskin pasayadi, ko'plab opportunistik infeksiyalar (siliy kasallik, pnevmosist pnevmoniyasi, zamburug'li infeksiyalar, teri va ichki organ o'smalari) rivojlanadi.

4. Klinik belgilar

- Tez-tez shamollash va uzoq tuzalmaslik
- Limfa tugunlarining kattalashishi
- Tez ozib ketish, doimiy charchoq
- Surunkali diareya
- O'pka sili, zamburug'li infeksiyalar (kandidoz)
- Kaposhi sarkomasi kabi xavfli o'smalar

5. Profilaktika va himoya choralari

- Himoyalangan jinsiy aloqadan foydalanish
- Narkotik moddalardan voz kechish, shpritslarni umumiy ishlatmaslik
- Qon donorligini nazorat qilish
- Tibbiyot muassasalarida sterilizatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilish
- Onalarda homilaga yuqish xavfini kamaytirish uchun maxsus davolash kurslari o'tkazish

6. Davolash

Hozircha VICHni butunlay yo'qotuvchi dori mavjud emas, ammo antiretrovirus terapiya (ARVT) yordamida:

- Virus ko'payishi to'xtatiladi
- Immun tizimning faoliyati tiklanadi
- Kasallikning og'ir bosqichga o'tishi sekinlashadi
- Bemorlar uzoqroq va sifatliroq hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ladilar

Bugungi kunda ARVT kombinatsion shaklda qo'llaniladi (bir nechta turdagi dorilarni birgalikda berish). Bu davolash umr bo'yi davom etadi.

XULOSA

OITS bugungi kunda global miqyosda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Kasallikni oldini olish va aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish eng samarali usul hisoblanadi. Har bir inson shaxsiy gigiyena, ehtiyotkorlik va bilim orqali o'zini ham, jamiyatni ham himoya qilishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi – OITSga qarshi kurash markazi.
3. Harrison's Principles of Internal Medicine, 2023.